

KORXONA BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY TAHLILNING O'RNI

Nilufar Usmandjanovna Babaxanova

Toshkent davlat transport universiteti "biznes va hisob" kafedra mudiri
lunalika1@mail.ru

Ayjan Baxtiyarovna Djumanova

Toshkent davlat transport universiteti "biznes va hisob" kafedrasida v.b.dotsenti
aijanna81@mail.ru

Xolida Yasharjon qizi Juraeva

Toshkent davlat transport universiteti "biznes va hisob" kafedrasida magistranti
xolidajuraeva06@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyat yuritishi hamda ijobiy moliyaviy natijalarga erishishida amalga oshiriladigan faoliyatning tahlili.

Kalit so'zlar: barqaror, bozor iqtisodiyoti, moliyaviy natija, foyda, zarar, xarajatlar, sof foyda, daromad, bozor munosabatlari, likvidlik koeffitsiyenti, rentabellik, aylanma mablag'lar, zahira.

ABSTRACT

Analysis of activities carried out in the conditions of a market economy in the stable functioning of economic entities and the achievement of positive financial results.

Keywords: stable, market economy, financial result, profit, loss, expenses, net profit, income, market relations, liquidity ratio, profitability, working capital, reserve.


KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning ijobiy moliyaviy natijalarga erishishiga bog'liq. Moliyaviy natijalar – xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir.

Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi. Yuqoridagi ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, moliyaviy natijalarni aniqlash uchun ma’lum bir davrdagi olingan daromadlar bilan qilingan xarajatlarni taqqoslash, ya’ni olingan daromadlardan qilingan xarajatlarni ayirish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Daromad va xarajatlarni taqqoslash orqali quyidagi ko‘rsatkichlari aniqlanadi.



1-rasm. Moliyaviy natija ko‘rsatkichlari

Daromadlar va xarajalar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o‘lchashga daxldor bo‘lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlarni, ya’ni foydani aniqlash va o‘lchash korxonada o‘z moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Daromadlar va xarajalar elementlari quyidagicha aniqlanadi.




2-rasm. Daromadlar va xarajatlar elementlari

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qishda uning satrlar bo'yicha ko'rsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiy qatorlarning qiymat ifodasi, hisobot davri va o'tgan yilning shu davri bo'yicha ma'lumotlarga umumiy izoh beriladi.




3 -rasm. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklining asosiy ko'rsatkichlari

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy natijasi bevosita uning moliyaviy faoliyatiga ham bog‘liq qolmoqda. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning bir-biriga bog‘liqligi quyidagicha ifodalanadi.



4-rasm. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Tahlil jarayonida ushbu bog‘liqlikning hamma tizimi o‘rganiladi. Bunda uning vazifasini to‘g‘ri belgilab olishni taqozo qiladi.



5-rasm. Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Moliyaviy natijalarning bu tarkib turkumlanishini xalqaro hisob andozalariga nisbatan berilgan deyish mumkin.. moliyaviy ko'rsatkichlar tahlilini "O'ztemiryo'lmashta'mir" UK ning ko'rsatkichlari misolida ko'rib chiqamiz (1-jadval).


1-jadval

"O'ztemiryo'lmashta'mir" UK ning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar, (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'rganilayotgan davr, yillar				
	2016	2017	2018	2019	2020
1. Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi	13 706 020	18 708 098	20 158 562	24 742 023	23 938 237
2. Asosiy faoliyatning foydasi	681 929	965 134	2 322 688	2 895 613	2 635 458
3. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi	724 721	1 004 262	2 589 065	2 799 315	2 889 682
4. Daromad solig'ini to'lagunga qadar foyda	724 721	1 004 262	2 589 065	2 799 315	2 889 682
5. Hisobot davrining sof foydasi	393 382	586 593	2 104 389	1 814 224	1 666 585

*manba korxonaning 2016-2020 yillar moliyaviy hisoboti

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, moliyaviy faoliyatning eng yuqori ko'rsatkichlari 2020-yilda kuzatilgan.



6-rasm "O'ztemiryo'lmashta'mir" UK ning 2020 yil moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar




Rasmdan shuni ko`rish mumkinki, Mahsulotni sotishning yalpi foydasi 70% tashkil etgan.

Moliyaviy holatning eng muhim xususiyatlaridan yana biri bu moliyaviy barqarorlikdir.

Moliyaviy barqarorlik korxonaning mol-mulkiga egalik qilish va undan foydalanish bo'yicha moliyaviy mustaqilligini tavsiflaydi.

Ushbu mustaqillik darajasi turli mezonlar bilan baholanishi mumkin:



7-rasm mustaqillik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Korxonaning moliyaviy barqarorligining asosiy vazifalaridan biri bu shakllanish manbalari bilan zahiralarni mavjudligini tahlil qilishdir. Zaxiralarni shakllantirishdan foydalanishni tavsiflash uchun har xil turdagi manbalarni qamrab olishning turli darajasini aks ettiruvchi bir nechta ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

- o'z aylanma mablag'larining mavjudligi (o'z kapitali va aylanma mablag'lar qiymati o'rtasidagi farqqa teng);
- zaxiralarni qoplashning o'z va uzoq muddatli manbalarining mavjudligi (o'z aylanma mablag'larini uzoq muddatli majburiyatlar miqdoriga ko'paytirish hisobidan olinadi);
- zaxiralarni qoplashning asosiy manbalarining umumiy qiymati (o'z va uzoq muddatli aylanma aktivlar hamda qisqa muddatli kreditlar va ssudalar yig'indisiga teng).

Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ko'rsatkichlari bilan bir vaqtda analitik ko'rsatkichlarni - xususan, likvidlik ko'rsatkichlarini hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Ulardan asosiylari: joriy, tezkor va mutlaq likvidlik koeffitsiyentlaridir.

1. Joriy likvidlik koeffitsiyenti:

$$K_{j.l.} = \frac{\left[\begin{array}{c} \text{joriy} \\ \text{aktivlar} \end{array} \right]}{\left[\begin{array}{c} \text{joriy} \\ \text{passivlar} \end{array} \right]} = \frac{JA}{JP} ;$$

Bu nisbat qisqa muddatli majburiyatlarning har bir birligiga qancha valyuta birliklari aylanma mablag'lar to'g'ri kelishini ko'rsatadi, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mablag'larning yetarliligini ko'rsatadi. $K_{j.l.} = 1-1,5$

$$\text{Hisobot davri boshiga } K_{j.l.} = \frac{JA}{JP} = 55\,712\,214/26\,864\,223=2.07$$

$$\text{Hisobot davri oxiriga } K_{j.l.} = \frac{JA}{JP} = 70\,948\,409/44\,877\,628=1.58$$

2. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti:

$$K_{sh.l.} = \frac{\left[\begin{array}{c} \text{joriy} \\ \text{aktivlar} - \text{zaxiralar} \end{array} \right]}{\left[\begin{array}{c} \text{joriy} \\ \text{passivlar} \end{array} \right]} = \frac{[JA - Z]}{JP} ;$$

Ushbu koeffitsiyent korxonaning aksiyalarni sotish imkoni bo'lmagan taqdirda qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash qobiliyatini baholash imkonini beradi. $K_{sh.l.}$ 1 dan ortiq emas.

$$\text{Hisobot davri boshiga } K_{sh.l.} = \frac{[JA - Z]}{JP} = 55\,712\,214 - 66\,116\,122 / 864\,223 = -0.38$$

$$\text{Hisobot davri oxiriga } K_{sh.l.} = \frac{[JA - Z]}{JP} = 70\,948\,409 - 72\,355\,424 / 877\,628 = -0.03$$

3. Absolyut likvidlik koeffitsiyenti:

$$K_{a.l.} = \frac{\left[\begin{array}{c} \text{pul} \\ \text{mablag'lari} \end{array} \right]}{\left[\begin{array}{c} \text{joriy} \\ \text{passivlar} \end{array} \right]} = \frac{M}{JP} .$$

Ushbu koeffitsiyent qisqa muddatli majburiyatlarning qaysi qismini sotiladigan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari bilan qoplash mumkinligini ko'rsatadi, ya'ni. mutlaqo likvid aktivlar.

$$K_{a.l.} = 0.2-0.35.$$

Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti korxonaning qisqa muddatli qarzlarni darhol tugatish qobiliyatini tavsiflaydi.

Hisobot davri boshiga $K_{a.l.} = \frac{M}{JP} = 1\ 059\ 312/26\ 864\ 223 = 0.03$

Hisobot davri oxiriga $K_{a.l.} = \frac{M}{JP} = 1\ 105\ 881/44\ 877\ 628 = 0.02$

4. Mustaqillik koeffitsiyenti (muxtoriyati):

$$K_{must} = \frac{\left[\begin{array}{c} xususiy \\ kapital \end{array} \right]}{passiv} = \frac{XK}{P}$$

Bu ko'rsatkich bozor barqarorligini tavsiflaydi, ya'ni avans mablag'larining umumiy miqdoridagi korxonaga egalarning ulushi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, korxonaning moliyaviy barqarorligi va kreditorlardan mustaqilligi shunchalik yuqori bo'ladi. Moliyaviy resurslarning umumiy miqdorida o'z kapitalining ulushi 50% dan kam bo'lmasligi kerak.

$$K_{must} > 0,5$$

$K_{must} = 0,5$ ning minimal qiymati barcha majburiyatlarni o'z mablag'lari hisobidan qoplash mumkinligini ko'rsatadi.

Hisobot davri boshiga $K_{must} = \frac{XK}{P} = 117\ 942\ 777/144\ 807\ 000 = 0.81$

Hisobot davri oxiriga $K_{must} = \frac{XK}{P} = 125\ 848\ 664/172\ 501\ 291 = 0.72$

5. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti:

$$K_{m.q.} = \frac{passivlar}{xususiykapital} = \frac{P}{XK}$$

Bu koeffitsiyent avtonomiya (mustaqillik) koeffitsiyentiga teskari.

Koeffitsiyentning oshishi korxonani moliyalashtirishda jalb qilingan mablag'lar ulushining ortishidan dalolat beradi va aksincha.

Agar $K_{m.q.} = 1$ korxonaning qarzi yo'q.

Hisobot davri boshiga $K_{m.q.} = \frac{P}{XK} = 144\ 807\ 000/117\ 942\ 777 = 1.23$

Hisobot davri oxiriga $K_{m.q.} = \frac{P}{XK} = 172\ 501\ 291/125\ 848\ 664 = 1.37$

6. Kapitalning moslashuvchanlik koeffitsiyenti:

$$K_m = \frac{\left[\begin{array}{c} o'z_aylanma \\ mablag'lari \end{array} \right]}{\left[\begin{array}{c} xususiy \\ kapital \end{array} \right]} = \frac{O'AM}{XK}$$

Korxonaning joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan xususiy kapital ulushini ko'rsatadi. Ushbu

koefitsiyent qiymatining oshishi korxonaning moliyaviy holatining o'zgarishini tavsiflaydi, chunki bu o'z kapitalini erkin boshqarish qobiliyatini ko'rsatadi. $K_m > 0,1$.

$$\text{Hisobot davri boshiga } K_m = \frac{O'AM}{XK} = 28\,847\,991 / 117\,942\,777 = 0.24$$

$$\text{Hisobot davri oxiriga } K_m = \frac{O'AM}{XK} = 26\,070\,781 / 125\,848\,664 = 0.20$$

2-jadval

“O'ztemiryo'lmashta'mir” UK ning likvidlik ko'rsatkichlari

Koeffitsiyent turi	Koeffitsiyentlar miqdori				
	2016	2017	2018	2019	2020
1. Joriy likvidlik koeffitsiyenti	2.16	1.83	2.07	2.07	1.58
2. Shoshilinch likvidlik koeffitsiyenti	1.79	1.58	-0.38	-0.39	-0.03
3. Absolyut likvidlik koeffitsiyenti	0.0001	0.0002	0.0001	0.0394	0.0246
4. Mustaqillik koeffitsiyenti (muxtoriyati)	0.65	0.59	0.80	0.81	0.73
5. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	1.53	1.69	1.26	1.23	1.37
6. Kapitalning moslashuvchanlik koeffitsiyenti	0.61	0.58	0.28	0.24	0.21

*manba muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob kitob natijalari

Jadval ma'lumotlaridan tahlil qiladigan bo'lsak, joriy likvidlik koeffitsiyenti ko'rsatkichlari 5 yil davomida ham qisqa muddatli majburiyatlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mablag'larning yetarliligini ko'rishimiz mumkin.

Korxonalar faoliyatining yakuni rentabellik - iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichida ifodalanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rentabellik foyda olish darajasini, sarflangan xarajat yoki capital hisobiga to'g'ri keladigan foyda hajmini belgilaydi. Rentabellik ko'rsatkichlari jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir savdo korxonalari va korxonalarining iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri xisoblanadi. Rentabellik ko'rsatkichlari korxonalarining xo'jalik faoliyatida bir qancha fuksiyalarni bajaradi. Jami aktivlarining rentabellik darajasi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning taxlilini “O'ztemiryo'lmashta'mir” UK misolida ko'rib chiqamiz (3-jadval).

3-jadval

“O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” UKning jami aktivlarining rentabellik darajasi va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarning taxlili, mln.so‘m *

Ko‘rsatkichlar	20 19-yil	20 20-yil	20 21-yil	2 020yil 2019- yilga nisbatan %	2 021- yil 2020- yilga nisbatan %
1.Sof foyda	39 3 382	58 6 593	21 04 389	1 49.1	3 58.7
2.Jami aktivlar summasi	61 095 383	67 908 896	98 600 527	1 11,15	1 45,19
3. Jami aktivlar rentabellik darajasi (1*100/2)	0.6	0,9	2.1 3	+ 0,3	+ 1.23

*Manba: muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob kitob natijalari

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan shuni ko’rish mumkinki, “O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” UKning sof foydasi 2020 yil 2019 yilga nisbatan 149.1 % oshgan, 2021 yil 2020 yilga nisbatan 358.7 % oshgan. Jami aktivlar summasi 2020 yil 2019 yilga nisbatan 111.15 % ga va 2021 yil 2020 yilga nisbatan 145.19 % oshgan. Jami aktivlar rentabellik darajasi 2020 yil 2019 yilga nisbatan +0.3 % ga , 2021 yil 2020 yilga nisbatan esa +1.23 % oshgan.

4-jadval

“O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” UKning sotilgan mahsulot rentabellik darajasi va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar taxlili, mln so‘m*

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2020-yil 2019- yilga nisbatan %	2021- yil 2020- yilga nisbatan %
1. Sotilgan mahsulot rentabellik (ishlab chiqarish tannarxi buyicha) (1*100/3)	82.80	84.37	86.98	+1.57	+2
2. Sotilgan mahsulot rentabellik (sof foyda buyicha)(2*100/3)	0.49	0.48	1.35	-0.01	+0.87

*Manba: muallif tomonidan amalga oshirilgan xisob kitob

natijalari

«O'ztemiryo'lmashta'mir»UK balansining vertikal tahlili shuni ko'rsatdiki, aktivlar tarkibidagi eng katta ulushni zaxiralar va xarajatlar egallaydi, ularning ulushi har yili tayyor mahsulotlar va qayta sotish uchun tovarlar ulushining o'sishi hisobiga ortadi. Naqd pul ulushi o'sib bormoqda, bu esa korxonaning holatini ijobiy tavsiflaydi. Balans majburiyatidagi kapitalning ulushi biroz pasayadi, bu esa korxonaning holatini salbiy tavsiflaydi. Kreditorlik qarzlarning ulushi oshmoqda, bu korxonaga uchun ham salbiy. Shunday qilib, korxonaning holati deyarli har jihatdan har yili yaxshilanmoqda, bu gorizontal va vertikal balans tahlillarining natijalari bilan tasdiqlanadi. «O'ztemiryo'lmashta'mir»UK balansi likvidligini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mutlaq likvidlik shartlari me'yoriy qiymatlarga mos kelmaydi, shuning uchun balansni likvid deb hisoblash mumkin emas.

XULOSA

Korxonaga moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish usullarini takomillashtirishda balansning moliyaviy koeffitsienti quyidagi omillar bilan cheklanganligini hisobga olish kerak:

1. Muqobil buxgalteriya usullaridan foydalanish. Buxgalteriya hisobi usullari moliyaviy koeffitsientlarni talqin qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuni esda tutish kerakki, koeffitsientlar odatda moliyaviy hisobotlardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Bunday ma'lumotlar buxgalteriya protseduralari orqali ishlab chiqariladi, ular korxonalar o'rtasida taqqoslana olmaydi, chunki korxonalar buxgalteriya usullarini tanlashda erkinlikka ega. Korxonalar o'rtasida izchillikning yo'qligi korxonalar o'rtasidagi ko'rsatkichlarni taqqoslash va tahlil qilishda qiyinchiliklarga olib keladi.

2. Hozirgi vaqtda ba'zi buxgalteriya alternativlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- inventarizatsiyani baholash usuli;
- ba'zi moliyaviy vositalar qiymatini baholash va investitsiya;
- amortizatsiyani hisoblash usuli;
- asosiy vositalarni sotib olish yoki ularni lizingga olish.

3. Korxonaning operatsion faoliyatining bir xilligi. Ko'pgina korxonalar diversifikatsiyalangan, turli sohalarda ishlaydigan ko'plab bo'linmalarga ega. Bu taqqoslash uchun nisbatan sanoat nisbatlarini topish jarayonini murakkablashtiradi. Bunday hollarda biznesning alohida segmentlarini sanoat o'rtacha bilan taqqoslash yaxshiroqdir. Bitta koeffitsient to'plami muammoni ko'rsatishi mumkin, boshqa to'plam esa bu muammoning qisqa muddatli ekanligini ko'rsatishi mumkin.

4. O'z fikrlardan foydalanish zarurati. Tahlilchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishda professional fikrlardan foydalanishi kerak.

Moliyaviy ko'rsatkichlar potentsialni baholashga yordam berish uchun ishlatilgan o'sish va biznes xavfi, ular korxonani bevosita baholash yoki uning kreditga layoqatini aniqlash uchun alohida foydalanilmaydi. Butun biznesni, shuningdek tashqi iqtisodiy va sanoat ma'lumotlarini ko'rib chiqish kerak. Moliyaviy koeffitsientlarni talqin qilishda barcha shartlarni hisobga olish kerak.

REFERENCES

1. A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov, N.F. Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” - Toshkent, 2005 yil.
2. Pardayev A.X., Pardayev B.X. “Boshqaruv hisobi” – Toshkent, 2008 yil.
3. Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. “Buxgalteriya xisobi, iqtisodiy tahlil va audit” Darslik. -Toshkent, 2007 yil.
4. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Х., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
5. Ж. С. Раматов, Л. А. Валиев, & М. Н. Хасанов (2022). АУРОБИНДО ГҲОШ ТАЛҚИНИДА ИНСОН БОРЛИҒИНИНГ АНТРОПОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 688-695.
6. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.